AHOLINI ISH BILAN TA'MINLASHDA QISHLOQ AHOLISINI MEHNAT SALOHIYATIDAN FOYDALANISH YO'LLARINING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI

Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna
Qoraqolpoq davlat universiteti, "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasi assistenti
ORCID:0009-0004-0176-2872
https://doi.org/10.5281/zenodo.18080562

Annotatsiya. *Mazkur maqolada qishloq joylarida mehnat resurslaridan foydalanishda mehnat salohiyatining zaruriyati, o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan. Qishloq aholisining mehnat salohiyatidan foydalanishning ilmiy asoslari, bandlikni oshirish, qishloq aholisi mehnat salohiyatidan foydalanish va samaradorligini oshirishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan. Shuningdek, mehnat salohiyatini baholash mezonlari va undan foydalanishning asosiy yo'nalishlari aniqlangan.*

Kalit so'zlar. *Mehnat resursi, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish omili, iqtisodiy o'sish, mehnat salohiyati, potentsial ish vaqti.*

Аннотация. *В данной статье освещается необходимость и особенности трудового потенциала в использовании трудовых ресурсов в сельской местности. Проанализированы научные основы использования трудового потенциала сельского населения, опыт передовых зарубежных стран по повышению занятости, использованию и повышению эффективности трудового потенциала сельского населения. Также определены критерии оценки трудового потенциала и основные направления его использования.*

Ключевые слова. *Трудовые ресурсы, сельское хозяйство, фактор производства, экономический рост, трудовой потенциал, потенциальное рабочее время.*

Abstract. *This article highlights the necessity and specific features of labor potential in the use of labor resources in rural areas. The scientific foundations of using the labor potential of the rural population, the experience of advanced foreign countries in increasing employment, using the labor potential of the rural population, and increasing its effectiveness are analyzed. The criteria for assessing labor potential and the main directions of its use have also been determined.*

Keywords. *Labor resource, agriculture, factor of production, economic growth, labor potential, potential working time.*

KIRISH

Jahon aholisining o'sib borishiga ko'ra ularning ehtiyojlarini qondirish, mehnatga yaroqli aholini ish bilan ta'minlash va qishloq joylarida aholini saqlab qolish sharoitida qishloq joylarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra "bugungi kunda dunyo aholisining 43,1 foizi qishloq joylarda istiqomat qilib, qishloq xo'jaligi sohasida bandlar soni 1 milliardga yaqin kishini tashkil etgan holda global qishloq xo'jaligi bozori 2025-yil oxiriga kelib 12 trillion AQSH dollargacha oshishi kutilmoqda". Jahon miqyosida aholini sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlash va qishloq aholisi bandligini oshirishda qishloq joylarida mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga

yo‘naltirilgan samarali mexanizm va vositalarni joriy qilish muhim muammolardan biri bo‘lib qolmoqda.

Mehnat resursi iqtisodiyotda asosiy ishlab chiqarish omili va asosiy tushunchasi hisoblanadi. Mehnatga layoqatli aholi sonining o‘zgarishi mehnat bozori va iqtisodiyotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Butun dunyoda kuzatilayotgan holatlardan biri bu mehnat resurslarining keskin oshib borayotganligidir. Mehnatga layoqatli aholining o‘sib borayotgani iqtisodiy o‘sish imkoniyatlarini beradi, shu bilan birga ish o‘rinlarini yaratish va mehnat bozoriga yangi ishtirokchilarni integratsiyalashuvi uchun qiyinchiliklar tug‘diradi. Aksincha, mehnatga layoqatli aholining qisqarishi iqtisodiy o‘sish, raqobatbardoshlik, aholining qaramligi va boshqalar uchun muammolarni keltirib chiqaradi. Biroq, mehnatga layoqatli aholining bir qismi bo‘lgan hamma ham mehnat bozorida faol ishtirok etmaydi. Ba’zilarning ishlari bor, boshqalari ish izlayapti, boshqalari esa boshqa faoliyat bilan shug‘ullanadi yoki mehnat bozoriga kirmaydi. Xalqaro standartlarda belgilanganidek, “ishchi kuchi mehnat bozorida faol ishtirok etuvchi mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Bu band bo‘lganlar va ishsizlar yig‘indisidir”[1]. Mehnatga layoqatli aholining ushbu ikki guruhi birgalikda ma’lum bir vaqtning o‘zida mamlakatda mavjud bo‘lgan ish haqi evaziga tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun ishchi kuchi taklifini ifodalaydi.

Zamonaviy sharoitda yuqori samaradorlik darajasiga erishish, iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish mamlakat mehnat salohiyatini boshqarishni takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mehnat salohiyati atamasi birinchi marta 1970-1980 yillarda qo‘llanilgan va bu tushunchani mehnat uchun sarflangan vaqt bilan bog‘liqligini tasvirlaydi. Shunday qilib, ilmiy iqtisodchilar G.P.Sergeyev va L.S.Chijovalar mehnat salohiyatiga shunday ta’rif berdi,“Mehnat salohiyati jamiyatda mavjud mehnat resurslaridir.

Mehnatga layoqatli aholi soni va uning sifat xususiyatlari (jinsi, yoshi, ma’lumoti, tayyorgarligi, malakasi va boshqalar) mehnat salohiyatining real qiymatini belgilaydi”[2].

Yana shu borada tadqiqotlarni amalga oshirgan olimlar V.Kostakov, A.Popovlar “mehnat salohiyati - bu ularning sifat va miqdoriy tomonlarining birligi nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladigan mehnat resurslaridir”[3] deb ta’rif bergan.

Ko‘rinib turibdiki, ushbu ta’rifda mehnat salohiyatining mohiyati mehnat resurslariga qisqartiriladi, garchi ko‘rsatilgandek, bu tushunchalar bir-biridan farq qiladi va mehnat resurslari, hatto miqdoriy va mohiyatan ham, mehnatni salohiyatini to‘liq tavsiflashdan uzoqdir. Ushbu yondashuvni mehnat resurslari deb atash mumkin.

Bir qator mualliflar V.K.Vrublevskiy, I.V.Korneychuk va boshqalar mehnat salohiyatini mehnat faoliyatining mumkin bo‘lgan natijalari nuqtai nazaridan tavsiflaydilar (masalan, “mehnat salohiyati birligiga yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishni kiritish”[4]).

TADQIQOTLAR METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada qishloq aholisini ish bilan ta’minlashda ularning mehnat salohiyatidan foydalanish yo‘llarining nazariy va uslubiy asoslarini aniqlash maqsadida umumilmiy va maxsus iqtisodiy tadqiqot metodlaridan kompleks foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida bandlik, mehnat bozori, mehnat resurslari va hududiy rivojlanish masalalariga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar, institutsional yondashuvlar qarashlari olindi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

Ilmiy abstraksiyalash va umumlashtirish metodi – qishloq aholisining mehnat salohiyati tushunchasining mazmunini ochib berish, uning tarkibiy qismlarini aniqlash va nazariy xulosalar chiqarishda qo‘llanildi.

Tahlil va sintez metodi – qishloq hududlarida bandlik holati, mehnat resurslarining taqsimlanishi hamda ularning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni alohida-alohida o‘rganish va ularni yagona tizim sifatida baholashda foydalanildi.


Taqqoslash metodi – qishloq va shahar hududlarida bandlik darajasi, mehnat salohiyatidan foydalanish ko‘rsatkichlarini o‘zaro solishtirish orqali farqli jihatlarni aniqlashga xizmat qildi.

Statistik tahlil metodi – rasmiy statistika ma’lumotlari asosida qishloq aholisining bandlik darajasi, ishsizlik ko‘rsatkichlari va mehnat resurslari dinamikasini o‘rganishda qo‘llanildi.

Induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish metodi – alohida kuzatuvlar va empirik ma’lumotlar asosida umumiy nazariy xulosalar ishlab chiqishda hamda nazariy qarashlarni amaliy holatlar bilan asoslashda foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mehnat salohiyati o‘rganilganda uning tarkibiy qismlari, tashkil etuvchi komponentlari o‘rganilishi tabiiy (1-rasm).




1-rasm. Mehnat salohiyati tarkibiy qismlarining nazariy asoslari

Olib borilgan tadqiqotlar asosida mehnat salohiyati tarkibiy qismlarini asosan 4 yo‘nalishga ajratish mumkin, bular psixofiziologik, ijtimoiy-demografik, malakaviy va shaxsiy xislatlar hisoblanadi.

Agar mehnat salohiyatining miqdoriy tomoniga to‘xtaladigan bo‘lsak, unda mehnat salohiyati qiymatini o‘lchash ko‘rsatkichi sifatida ish vaqti fondini olishimiz kerak. Malakaviy xususiyatlar, ish tajribasi, bilim darajasi, mehnat faoliyatiga ijodiy yondashish mehnat salohiyatining sifat tomonini tashkil qiladi. Jamiyat darajasida biz mehnat salohiyatining quyidagi

ta’rifini berish mumkin: “Mehnat salohiyati - bu jamiyatning (yoki uning ishlab chiqarish, hududiy birligining) uzoq muddatli istiqbolda mamlakat milliy iqtisodiyotida eng samarali ishlash uchun sarflanadigan salohiyat”[5].



2-rasm.Mehnat salohiyatini hisoblash metodologiyasi bosqichlari

Mehnat salohiyatining o‘lchov birligini tanlash muhim ahamiyatga ega. Bir qator mualliflar mehnat salohiyatini shaxs yillarda o‘lchashni taklif qiladilar, ya’ni aslida mehnat salohiyati mehnat resurslari tushunchasiga yaqinlashadi. K.Marks fikricha:“Ish vaqti shaxsning jonli mehnatidir, uning shakli, mazmuni, individualligiga befarq, u mehnatning jonli miqdoriy borligi va ayni paytda bu borliqning immanent mezonidir”[6].

Bizningcha, mehnat salohiyati kishi-soat bilan o‘lchanishi kerak. Ammo bu yerda xodim yoki oliy ma’lumotli bir guruh shaxslarning mehnat salohiyati oddiy mehnat bilan shug‘ullanadigan odamlarning mehnat salohiyatidan sezilarli darajada farq qilishini ham inobatga olish lozim. Shuning uchun bizning tadqiqotimizda mehnat salohiyati kishi-soati bilan o‘lchanadi. Murakkab mehnatni oddiy mehnatga o‘tkazish ushbu lavozimni egallash uchun zarur bo‘lgan yillar sonining (ta’lim uchun, shuningdek, amaliy ishning davomiyligi) oddiy mehnat yillari soniga teng nisbatda amalga oshirildi. Shu asosda turli toifadagi ishchilarning potentsial ish vaqti fondi (PLTF) hisoblab chiqilgan.

Mehnat salohiyati o‘sishining omillaridan biri ish vaqtining potensial fondining ko‘payishi hisoblanadi. Biroq, butun ijtimoiy ishlab chiqarishning uzoq davom etgan samaradorligini hisobga olgan holda, ish vaqtining umumiy fondini maksimal darajada oshirish muammolarini hal qilishning qiyinligini ko‘rsatadigan bir qator omillar mavjud. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda umumiy ishchilar sonining 48-50 foizi bo‘lgan ayollari jtimoiy ishlab chiqarishda band. Ayollar ishlashi mumkin bo‘lgan kasblar ro‘yxati kengayib bormoqda. Shu bilan birga, aholining takror ishlab chiqarishi uchun xotin-qizlarning mehnat va dam olishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish zarur.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Bizningcha, hududiy ish bilan bandlik xizmatini ish bilan bandlik sohasidagi asosiy yo‘nalishlari bo‘yicha faoliyati holatining natijalari shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozorini tartibga solishda faol ish bilan bandlik siyosati quyidagi masalalarni hal etishga qaratilmog‘i zarur:

1. Bozor iqtisodiyoti talabalariga muvofiq ishchi kuchi sifatini oshirishda ish bilan band bo‘lmagan aholi va ishsiz fuqarolarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;
2. Ishchi kuchini kasbga yo‘naltirish va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish;
3. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolarni (nogironlarni, bolalik ayollarni, boshqa joydan kuchib kelganlarni, yoshlarni va boshqalar) ishga joylashtirishga ko‘maklashish, shuningdek jamoat ishlarini rivojlantirish va yoshlarni ishga joylashtirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqish;
4. Yangi ish o‘rinlarini yaratish, kichik biznesni qo‘llab-quvatlash va ish bilan band bo‘lmagan aholini tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish;
5. Ishdan ozod etilgan ishchilarni ishga joylashtirish va qayta tayyorgarlikdan o‘tishi bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish;
6. Aholini ish bilan bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha axborot xizmati ko‘lamini kengaytirish;
7. Mehnat bozorida monitoring tadqiqotlarini o‘tkazish;
8. Ish beruvchilarning talabalariga yo‘naltirilgan holda boshlang‘ich, o‘rta va oliy ta’lim tizimlarini takomillashtirish;
9. Ish beruvchilar uchun maslahat xizmatlari tashkil etish;
10. Ishchi kuchini taklifini ish beruvchilar talabiga muvofiqlashtirish;
11. Ishsizlikning davomiyligini kamaytirish;
12. Ish bilan bandlik sohasida ijtimoiy hamkorlik mexanizmini rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. International Labour Standards: 19th International Conference of Labour Statisticians. Geneva, Switzerland. 2-11.10.2013. https://www.ilo.org/meetings-and-events/19th-international-conference-labour-statisticians.
2. Sergeeva G.P., Chizhova L.S.Labor potential of the country. Moscow: 1982.
3. KudryavtsevaO.V. The economic mechanism of the formation and use of labor in the countryside: a monograph. Tver: “Agrosphere” of Tver State Agricultural Academy, 2010.
4. KorneychukB.V. Labor Economics. -Moscow: Gardariki, 2007
5. Khrapova E.V., KychanovB.I. Labor potential: assessment, development dynamics, reserves for improving use: monograph. -Omsk: OIVT (branch) Federal State Budgetary Educational Institution of Higher Professional Education “NGAVT”, 2014
6. Marx K., EngelsF. Selected Works. 2nd edition. Vol. 13. -Moscow: State publishing house of political literature, 1981.